



XALQARO ALOQALAR

Mirzo Tursunzoda nomidagi Tojikiston davlat madaniyat va san'at institutida "Sharq va G'arb musiqaviy an'analari" mavzusiga bag'ishlangan xalkaro festival boshlandi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori **Go'zal Xoliqulova** mazkur festivalda ishtirok etmoqdalar. Ma'lumki, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifasi milliy reytingni yanada yuqoriga ko'tarish, yetishtirib chiqarayotgan kadrlar salohiyatini o'stirishdan iborat. Shuningdek, xalkaro aloqalarda faol bulish, ilmiy-ijodiy ishlarga, monografiyalarga mualliflik xukukini qo'ulga kiritish, ya'ni patent idorasining guvohnomalariga ega bo'lish, xalqaro talabalarni institutga jalb kilish, hamkor institutlarda yuqori saviyada Mahorat darslarini o'tkazish, diplom va sertifikatlariga ega bulish kabi vazifalarda professor-o'qituvchilar faollikni qo'ldan bermayptilar.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

Go'zal Xoliqulova Mirzo Tursunzoda nomidagi Tojikiston davlat madaniyat va san'at institutida "Drama va kino aktyorligi" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan 2-3 kurs talabalariga Sahna nutqi fanidan Mahorat darslarini o'tishni boshladi. Amaliy dars mashg'ulotlari, ijodiy ishlanmalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar borasida ma'lumotlar berildi.

"Aktyorlik san'atida nutqiy xarakter yaratish" masalalarida sahna nutqi mutaxassislari bilan uchrashib ba'zi muammolar ustida fikr almashdilar.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

28 oktabr kuni Go'zal Xoliqulova "G'azal va musiqa" mavusida xalkaro konferensiyada ma'ruza va taqdimot o'tkazishga tayyorgarlik ko'rmokda.

Rossiya federatsiyasi, Qozog'iston, Novosibirsk, Turkmaniston, Qirg'izistondan kelgan olimlar, tadqiqotchilar oldida ma'ruzaga chikish oldidan kator olimlar va san'atkorlar o'tkazgan Mahorat darslarida ham ishtirok etdi. Festivalni ko'tarinki ruhda o'tishini tilaymiz!

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
matbuot xizmati